

OROL DENGIZI MUAMMOSINING GLOBAL EKOLOGIK JARAYONLARDAGI O'RNI

Aziza Jo'ra qizi Norqulova

Buxoro Davlat Universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik muammo sifatida ko'rilayotgan muammolardan biri Orol dengizi haqida so'z yuritiladi. Maqolada ma'lum bir tarzda Orol dengizi atrofida u yerga o'sishga moslashgan o'simliklar va dengiz haqida chuqur ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: orol, suvning bug'lanishi, qurg'oqchilik, iqlim, dengiz sathi, cho'llanish

Annotation. This article discusses one of the major environmental issues the Aral Sea. It provides in-depth information about the plants adapted to grow in the surrounding areas of the Aral Sea and about the sea itself.

Keywords: Aral, water evaporation, drought, climate, sea level, desertification.

Аннотация. В данной статье рассматривается одна из экологических проблем — Аральское море. В статье приведены подробные сведения о растениях, приспособленных к произрастанию в районе Аральского моря, а также информация о самом море.

Ключевые слова: Арал, испарение воды, засуха, климат, уровень моря, опустынивание.

Kirish. Orol dengizi ilgari vaqtda dunyodagi eng katta ichki dengizlardan hisoblanib, undan baliqchilik, ovchilik, transport va rekratsion maqsadlarida foydalanilar edi. Dengiz suv rejimini unga quyiladigan Amudaryo, Sirdaryo, yer ostki suvlari hamda atmosfera yog'inlari tushishi va yuzadan suvning bug'lanishi tashkil etadi. Qadimgi tarixiy davrlarda dengiz sathining 1,5 -2 m o'zgarishi tabiiy iqlim xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, suvning hajmi 100-150 kub km, suv sathi maydoni 4000kv km ni tashkil qiladi. Markaziy Osiyoda sug'oriladigan dehqonchilikda suv resurslaridan asossiz va noo'rin foydalanish natijasida Orol va Orolbo'yi muammosi vujudga keldi. Orol dengizining qurishi natijasida sho'rlangan yerlar, o'simliklar xomashyosidan foydalanish va chorvani betartib o'tlatish natijasida tabiiy manzaralarga ko'pgina zarar keltirildi. Qurib qolgan sho'rxok yerlardan shamol natijasida tuz-chang to'zonlari atmosferaga ko'tarilishi natijasida tuz miqdori Antarktika muzliklarigacha yetib borib muzliklarni erishiga ham sabab bo'lmoqda.

1-jadval.Orol dengizining suv muvozanati(km.kub/yil)

Yillar	Qabul qilinishi	(kirimi)	Sarfi bug'lanishi	Muvozanati (balansi)
	Daryolarning quyilishi	Atmosfera yog'inlari		
1971-1980	16,7	6,3	55,2	-32,2
1981-1990	3,9	6,2	43,7	-33,6
1991-1994	21,0	4,6	33,6	-8,0
				[2]

Orol dengizining qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi shamol tezligining ortishi, suvning to'lqinlanish hodisasini kuchayishiga olib keldi.[3]

Xulosa.Umuman olganda, hozirgi kunda Orol dengizi atrofida sho'rga chidamli cherkez , qandim, saksovul va boshqa o'simliklarni ekib ko'paytirish choralari ko'rilishi nazarda tutilgan. [4].Orol atrofidagi tabiiy ko'llarni saqlab qolish e'tiborga olinishi lozim. Shunda Orol atrofidagi aholida ko'p kuzatilayotgan nafas yo'llari kasalliklari ham sezilarli darajada kamayish ehtimoli istiqbolli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev S. I. Orol dengizi muammosi va ekologik barqarorlik // Interspp.com. URL: <https://interspp.com> (murojaat qilingan sana: 25.11.2025).
2. To'xtayev A. Ekologiya. -Toshkent: O'qituvchi, 1994. -B. 144148.
3. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1994. -B. 150.
4. Tilavov T. Ekologiya. -Toshkent: Fan, 2001. -B. 210.
5. Environmental consequences of the Aral Sea // Britannica. URL: <https://www.britannica.com/place/Aral-Sea> (murojaat qilingan sana: 25.11.2025).
6. Green Aral Sea initiative. United Nations Development Programme // UNDP Uzbekistan. URL: <https://www.undp.org/uz/uzbekistan> (murojaat qilingan sana: 25.11.2025).